

UMUMMEHNAT VA KASBIY KO'NIKMA HAMDA MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA TA'LIM VOSITALARINI QO'LLASH TEXNOLOGIYASI

Xolmuratova Mahbuba Mahmudovna

Toshkent Davlat Pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tarbiya jarayonining yangilanishi va mazmunan isloh qilinishi tizimni yangilash uni amalga oshirishda yetakchilik vazifasini bajaruvchi o'qituvchini ham yangicha tayyorlanishi va shakllantirilishini talab etish, o'quv dasturlari, darsliklar, didaktik materiallar to'plamini yaratish va yangi avlodga joriy qilish borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar ta'lim tarbiya, kasbiy ko'nikma, malaka, o'quv qo'llanma, texnologiya, kasb, o'qitish uslubi

Ta'lim-tarbiya jarayonining yangilanishi va mazmunan isloh qilinishi, faqat tizimni yangilashnigina emas, uni amalga oshirishda yetakchilik vazifasini, o'qituvchining ham yangicha tayyorlanishi va shakllantirilishini talab etadi, o'quv-me'yoriy hujjatlar (konsepsiya, nizomlar, ta'lim standartlari hamda taraqqiyot dasturlari va boshqalar), o'quv-uslubiy majmua (o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va didaktik materiallar to'plami va boshqalar) yangi avlodini yaratish va amaliyotga joriy etish anchagina murakkab, mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Albatta, ta'lim-tarbiya jarayonining zarur samaradorligiga erishish uchun har bir fan sohasida, har bir ta'lim muassasasida, har bir mashg'ulotda zaruriy moddiy, xom ashyoviy, o'quv-uslubiy, texnik-texnologik ta'minot amalga oshirilmog'i lozim. Ta'lim jarayonini moddiy texnikaviy, xom ashyo ta'minoti umumdavlat miqyosida amalga oshiriladigan, nihoyatda murakkab, zaruriy, ko'p xarajat talab etadigan, ammo juda muhim vazifalardan hisoblanadi. Albatta, ta'lim tizimining o'quv-uslubiy va moddiy-texnikaviy, xom ashyo ta'minoti alohida etiborga molik masalalardan bo'lib, ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, metodik, iqtisodiy, hatto ijtimoiy xususiyatlarga ega muammo hisoblanadi.

Masalan, birgina kasb va mehnat ta'limi sohasini olib qarajak: ta'limning turli bosqichlarida o'quv jarayonini samarali, mahsuldor tashkil etish uchun turli o'yinchoqlar, qog'oz, karton, yelimlar, bo'yoqlar, asboblari, moslamalar, qurilmalar, xom ashyo (yog'och, metallar, metalmaslar, gazlama, plastmassa, shisha va boshqalar), maxsus binolar (ustaxonalar, laboratoriyalar, shiyponlar, texnikani saqlash uchun ko'tarma ayvonlar, omborlar va boshqalar), dala maydonlari, mashq qilish va yumush bajarish vositalari, trenajyorlar, haydov va sinov maydonlari (poligonlar), texnologik, operatsiyali, texnik guvohnomalar, mehnat xavfsizligi va qonunchilik, sanitariya-gigiena qoidalari va boshqalar talab etiladi. Maxsus ish kiyimlari, himoya vositalari, mashinalar, yoqilg'i, mexanizmlar, maketlar va modellar, ta'lim vositalari (qo'zg'almas va harakatdagi, adivizual, bosma, video, tovushli va tovushsiz, dasturli va boshqalar) kabi yuzlab nomdagi va mingdan ziyod turdagi jihozlar zarurdir. Ana shunday, ta'limning sirtidan qaraganda sezilmaydigan, ammo, muhim va juda ulkan ko'lamdagi moddiy-texnikaviy, xom ashyo ta'minoti respublikamizda yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Biz quyida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida maqbul bo'lgan ta'lim vositalariga to'xtalamiz: Testlar. Nazorat dasturlari (testlar) topshiriqlarning alohida turi bo'lib, unda nazariy va amaliy ta'lim jarayonida bilimlarning o'zlashtirilishini, malaka va ko'nikmalarni shakllantirilishini guruhlar bo'yicha tezkor nazorat qilish, ichki va tashqi qaytar aloqani o'rnatish imkoniyati tug'iladi, shu asosda o'qituvchi (usta) va o'quvchilar ta'lim jarayonini boshqarish funksiyasini amalga oshiradilar. V.P.Bespalko o'zining oxirgi ishlaridan birida u yoki bu materialni o'zlashtirishda bilim, malaka va ko'nikmalarga muvofiq testlar klassifikatsiyasini taklif qilgan. O'zlashtiriladigan material tahlili asosida u to'rtta darajani ajratish imkonini bergan.

Birinchi darajali testlar - o'quvchilar ko'nikmalarini tekshirib, ularning faqatgina berilgan ma'lumotlarni qayta namoyish etishida tayyor savol va javoblardan to'g'ri foydalanilganligi aniqlanadi. Birinchi darajali testlarga V.P.Bespalko tanib olish («to'g'ri-noto'g'ri» turidagi javobni talab qiluvchi mashqlar), farqlash (taklif etilayotgan javoblar qatoridan to'g'risini tanlash) va klassifikatsiya testlarini kiritadi.

Ikkinchi darajali testlar - o'quvchilarda ma'lumotlarni ko'rsatmalarsiz aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun mo'ljallangan. Shunga muvofiq V.P.Bespalko quyidagi tipdagi ikkinchi darajali testlarni ko'rsatadi: almashtirish; konstruktiv; tipovoy.

Uchinchi darajali testlar o'quvchining ijodiy ko'nikmalarini, uning berilgani fan tarmog'i uchun yangi bo'lgan ma'lumotni topa bilishdagi tadqiqotchilik imkoniyatlarini aniqlaydi. Bunday testlar sifatida yechish algoritmi noma'lum bo'lgan muammo - topshiriqlardan foydalaniladi. Bu turdagi testlar uchun tayyor etalon mavjud bo'lmaydi, o'quvchilarning topgan yechimi sifatini faqatgina tegishli ekspertlar guruhigina baholashi mumkin.

O'quv materialini turli darajada o'zlashtirilishini nazorat qilishda qo'llaniladigan testlar mazmunining tahlili ularning birinchi uchtasiga nisbatan quyidagi talablarni shakllantiradi:

- test tarkibiga ma'lum bilimlar asosidagi, shuningdek muammoli xarakterdagi topshiriqlar kiritilishi mumkin;

- testlar mazmunini ishlab chiqishda bir xillikka yo'l qo'yimaslik lozim;

- faktlarni klassifikatsiyalashga yo'naltirilgan iboralardan ko'ra, o'quvchilarning o'quv materialini puxta tahlil qilishini ta'minlash lozim;

- uni sistemalashni, o'rganilayotgan ob'ektdagi umumiylik va alohidalikni, jarayonlar mohiyatini aniqlashni talab qiladigan sabab va oqibat bog'liqligini ifodalovchi topshiriqlarga e'tiborni qaratish lozim;

- murakkab topshiriqlarni bir nechta oddiylariga ajratish mumkin;

- topshiriq murakkabligi uni bajarish uchun o'quvchi amalga oshirishi lozim bo'lgan operatsiyalar soni bilan belgilanadi;

- javoblarni erkin shakllantirishni talab qiluvchi topshiriqli testlarni imkoni boricha kamroq qo'llagan ma'qul;

- erkin tanlanadigan javobli topshiriqlarni kompyuterlar vositasida qo'llash maqsadga muvofiq;

- «to'g'ri - noto'g'ri» javobli testlarni ishlab chiqishda to'g'ri va noto'g'ri fikrlashlar tizimidan iborat bir turdagi bir nechta topshiriqlarni kiritish lozim;

- javoblari tanlanadigan topshiriqlardagi javoblar soni 4 tadan ortiq bo'lmisligi lozim;
- test savollariga javoblar shakliga va hajmiga ko'ra, bir - biridan keskin farq qilmasligi lozim;
- noto'g'ri javoblarni tipik xatolar asosida keltirish lozim (ular orasida yetarlicha bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotga ega bo'lgan javoblar bo'lishi mumkin);
- to'g'ri javobni topish imkoniyatini kamaytirish uchun «bilmayman» shaklidagi javobni ham keltirish mumkin;
- agar javoblar ichida 203 ta to'g'ri javoblar berilgan holda to'rttadan ortiq javobli testlar tuzishga ruxsat etiladi;
- klassifikatsiyalashga oid topshiriqli testlar asosiy mazmuni ob'ektni o'rganishga oid ma'lumotlar asosida qurilishi mumkin;
- qayta guruhlashga oid testlarda mehnat va texnologik jarayonlarni o'rganishga oid ma'lumotlar berilishi lozim;
- bir necha topshiriqli testlarda, topshiriqlar raqamlar bilan, javoblar esa harflar bilan belgilanadi.

Ekranli ta'lim vositalari. Ekranli ta'lim vositalari o'quvchilarda sistemali, mustahkam bilim, malaka va ko'nikmalarni nazariy va amaliy mashg'ulotlarda shakllantirishga xizmat qiladi. Ekran vositasida beriladigan ma'lumotlar ilmiy asoslangan fan yangiliklariga, ishlab chiqarish texnika texnologiyasiga mos bo'lishi, o'z asosida istiqbolli texnologiya va mehnatni tashkil qilish elementlariga ega bo'lmog'i lozim. Ekran vositalari yordamida ma'lumotlarni uzatish deduktiv va induktiv usullarda amalga oshirilishi mumkin. Ekran vositalari o'quvchilarni ilmiy bilish, usul, yo'llari va kasbiy mahoratni oshirish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirishi lozim. Ta'lim vositalarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar mazmuni, hajmi va qamrovi maxsus, umumiyqisodiy, umumta'lim fanlari o'quv dasturlariga, o'quvchilar tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi hamda amaliyotni nazariya bilan bog'lashga xizmat qilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 sentyabrdagi 736-son “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.
2. Андреева Е. Н. Самоотношение подростков / Психология современного подростка. — СПб., 2005.
3. Андреева Т. В. Социальная психология семейных отношений. — СПб., 1998.
4. Артамонов С. В., Коростылева Л. А. Ценностные установки на брачные отношения и особенности их становления / Психологические проблемы самореализации личности. Вып. 6. — СПб., 2002.
5. Баранник О. С. Влияние семьи на формирование тревожности у дошкольников / Ананьевские чтения-1999: Тезисы научно-практической конференции. — СПб., 1999.
6. Баранов А. А. Стресс-толерантность педагога. Теория и практика. — М.; Ижевск, 2002.